



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I

**Olis hududlarda joylashgan umumta’lim muassasalariga chet tillari
o‘qituvchilarini ishga qabul qilish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Olis hududlarda joylashgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning mehnatini yanada rag‘batlantirish to‘g‘risida” 2019-yil 7-iyundagi 471-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2023-yil 28-noyabrdagi 27/9-183-son topshirig‘i ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2023-yil 28-noyabrdagi 27/9-183-son topshirig‘i bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 471-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida boshqa hududlardan kelib faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarga maxsus ustama belgilanadigan hududlarda (keyingi o‘rinlarda - olis hududlar) joylashgan umumta’lim muassasalariga 2023-2024-o‘quv yilidan, 2025-2026-o‘quv yiliga qadar B2 darajadagi milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo‘lmagan tegishli mutaxassislarni istisno tariqasida xorijiy til o‘qituvchisi vazifasiga ishga qabul qilish;

2025-2026-o‘quv yiliga qadar mazkur toifadagi o‘qituvchilarni milliy yoki xalqaro baholash tizimlari bo‘yicha kamida B2 darajadagi sertifikatga ega bo‘lishlari lozimligi;

belgilangan muddatlarda tegishli darajadagi sertifikatga ega bo‘lmagan o‘qituvchilar bilan mehnat shartnomasi o‘rnatilgan tartibda bekor qilinishi belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (N.Kuchkarova), Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari bilan birgalikda istisno tariqasida ishga qabul qilingan o‘qituvchilarni uzluksiz malaka oshirish kurslariga jalb etsin.

3. Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish boshqarmasi (Sh.Temirova), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari bilan birgalikda istisno tariqasida ishga qabul qilingan o‘qituvchilarni kelgusi o‘quv yiliga qadar chet

tilini bilish darajasini kamida B2 darajada bo'lishi bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqsin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari 2025-2026-o'quv yiliga qadar faqat, istisno tariqasida ruxsat berilgan hududlardagi maktablarda ushbu amaliyot qo'llanilishini va boshqa hududlarda ishga qabul qilish o'rnatilgan tartibda (*tegishli darajaga ega bo'lgan pedagog kadrlar orasidan*) amalga oshirilishini nazorat qilsin.

5. Devonxona (D.Isxakova) bir kun muddatda ushbu buyruqni tegishli tarkibiy bo'linmalar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yetkazsin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari U.Begimqulov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,
2023-yil 19-dekabr
564-son